



XALQ DEPUTATLARI TOYLOQ TUMANI KENGASHINING QARORI

2022 - yil 23 - fevral

VI-50-34-7-104-K/22

Toyloq tuman hokimligi

Tuman mahalliy budjetining 2022-yil 1-yanvar holatiga erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlar to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-25-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi budjet kodeksining 126-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi “Mahalliy davlat hokimiyati organlarining budjet vakolatlarini kengaytirish va mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishdagi mas‘uliyatini oshirish to‘g‘risida”gi PQ-3042-son Qarori 5-bandi, tuman hokimligi Moliya bo‘limi boshlig‘i A.Sharipovning 2022-yil 14-fevraldagi 01/01-38/37-sonli xatiga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq, elliginchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimligi Moliya bo‘limi mudiri A.Sharipovning 2022-yil 14-fevraldagi 01/01-38/37-sonli xati ma‘lumot uchun qabul qilinsin.
2. Toyloq tuman mahalliy budjetining 2022-yil 1-yanvar holatiga erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan:

Tuman Xalq qabulxonasini moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va jihozlash uchun 20,0 (yigirma) million so‘m, tuman Davlat soliq inspeksiyasi tomonidan jismoniy va yuridik shaxslardan yer va mulk solig‘ini undirish maqsadida foydalanish uchun 50,0 (ellik) million so‘m, Samarqand viloyati “Toza hudud” DUK Toyloq tumani filiali tomonidan tuman hududida obodonlashtirish ishlarini yanada sifatli amalga oshirilishini ta‘minlash maqsadida avtoshina va akumlyator xarid qilish uchun 50,0 (ellik) million so‘m, tumandagi sektorlar shtabi

a'zolarini rag'batlantirish uchun 25,0 (yigirma besh) million so'm, tuman hokimligining xizmat avtomashinalarini ta'mirlash uchun 36,0 (o'ttiz olti) million so'm, Nuroniy mahalla fuqarolar yig'iniga ichimlik suvi tarmog'ini tortish uchun suv quvuri xarid qilishga 2,0 (ikki) million so'm, jami 183,0 (bir yuz sakson uch) million so'm mablag' tuman hokimligiga ajratilsin.

Tumandagi Bog'izog'on va O'zbekiston mahalla fuqarolar yig'inlari o'rtasidagi 34-sonli umumta'lim maktabiga borish yo'liga piyodalar yo'lakchasi qurish uchun sement xarid qilishga 14,0 (o'n to'rt) million so'm mablag' tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga ajratilsin.

“Obod qishloq” dasturiga kiritilgan 61-sonli umumta'lim maktabini Prezident ta'lim muassasiga o'tkazish uchun maktabni joriy ta'mirlash ishlariga 600,0 (olti yuz) million so'm mablag' tuman Xalq ta'limi bo'limiga ajratilsin.

Tuman mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi tasarrufidagi “Nuroniylik maskani”ga 1-ta farrosh, 1-ta ish yurituvchi va 1-ta qorovul shtat birligini 2022-yil fevral-dekabr oylarida saqlash uchun 35,0 (o'ttiz besh) million so'm, mahalla fuqarolar yig'inlari binolarida foydalanilgan internet xizmatlari uchun 10,0 (o'n) million so'm jami 45,0 (qirq besh) million so'm mablag' tuman Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limiga ajratilsin.

Tuman tibbiyot birlashmasi tomonidan buyrak yetishmovchiligi kasalligi bor bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatish uchun zaruriy dori-darmon xarid qilishga 50,0 (ellik) million so'm mablag' tuman Tibbiyot birlashmasiga ajratilsin.

2. Tuman hokimligi Moliya bo'limi (A.Sharipov)ga budjetga tegishli o'zgartirish kiritish, tuman G'aznachilik bo'linmasi (B.Kubaev)ga belgilangan tartibda to'lovlarni amalga oshirish, tuman hokimligi bosh hisobchisi (M.Qurbonov), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (Sh.Odilov), tuman Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi (B.Xushnazarov), tuman Xalq ta'limi bo'limi (X.Hojiqulov), tuman Tibbiyot birlashmasi (U.Suvanov)larga ajratilgan mablag'lardan maqsadli foydalanish vazifasi topshirilsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilib borish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (A.Mirzayev) va tuman hokimining birinchi o'rinbosari (J.Xujamurodov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengashi Raisi



B.Babonazarov



06.04.2022 даги

DIAMAND BUILDER МЧЖ ва Тайлоқ туман ҳокимлиги ўртасида 30287800,00 сўм умумий суммага
тузилган 30 - сонли шартномага

ТҲУЛОВЛАР ЖАДВАЛИ*

Боб 018
Шахсий ғазна ҳисобварақ 100022860182387011204018089

| 2022 й. ойлар номи. | Харажатлар тури** (бюджет таснифининг тегишли коди) | | | сумма |
|---------------------|--|--|--|---------------|
| | 4234100 | | | Жами |
| Январь | | | | |
| Февраль | | | | |
| Март | | | | |
| Апрель | 30 287 800,00 | | | 30 287 800,00 |
| Май | | | | |
| Июнь | | | | |
| Июль | | | | |
| Август | | | | |
| Сентябрь | | | | |
| Октябрь | | | | |
| Ноябрь | | | | |
| Декабрь | | | | |
| Жами йил бўйича | 30 287 800,00 | | | 30 287 800,00 |

Жами 30287800,00 сўм

Ушбу миллион икки юз саксон етти минг саккиз юз сўм 00
тийини
сумма сў билан

Юқоридаги кўрсатилган суммадан 9086340,00 сўм ёки 30,00%*** шартноманин умумий суммасидан
% ***20 ойда тўланиши лозим.

(*) — бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан таъинланган бўлинимаси ва икки
нуسخада тақдим этилади;

(**) — бўлим, кичик бўлим ва харажат моддаси кўрсатилади;

(***) — Юқоридаги кўрсатилган суммадан ойига _____% жорий ойини _____ санолигача ҳар ойда олдиндан
тўланиши лозим (ушбу сатр бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан
коммунал хизматлар кўрсатиши, алоқа хизматлари ва қонун ҳужжатларида назарда тутилган ҳар ой доимий равишда
товарлар (ишлар, хизматлар) етказиб бериш шартномалари бўйича олдиндан тўловни амалга ошириши ҳолларида
тўланиши лозим)



Бююртмачи раъизлари

Бююртмачи бош бухгалтери

(имзо)

Бабоузоров Баходир Қалитронич
Ф.И.Ш.

(имзо)

Курбонов Муштар А.
Ф.И.Ш.

Ғазначилик бўлинимасининг
ходими қабул қилди

(имзо)

Бююртмачи ходими
қабул қилди

(имзо)

« _____ » 20 _____ й.

« _____ » 20 _____ й.

**Хизматлар кўрсатиш (Автомашинани таъмирлаш)га оид 30-сонли шартнома
(02.04.2022 йил Лот № 22110012060193)**

Тойлок тумани

«06» «апрел» 2022 йил

"DIAMAND BUILDER" МЧЖ, кейинги уринларда "Бажарувчи" деб юритилади. Узининг визоми, асосида иш юритувчи раҳбари **И.Хасанов** номидан, бир томондан ва **Тойлок туман ҳокимлиги**, кейинги уринларда "Буюртмачи" деб юритилади, узининг визоми, асосида иш юритувчи раҳбари **Б.Бабоназаров** номидан, иккинчи томондан мазкур шартномани қуйидагилар ҳақида туздилар.

I. ШАРТНОМА ПРЕДМЕТИ

1.1. Мазкур шартнома буйича "Бажарувчи" "Буюртмачи"га Туман ҳокимлигининг хизмат автомашиналарини таъмирлашга хизмат кўрсатиш (кейинги уринларда «Хизматлар» деб юритилади) хизматини кўрсатиш. "Буюртмачи" ушбу "Хизматлар"ни қабул қилиши ва қийматини тулаш мажбуриятини ўз зиммасига олади.

1.2. "Хизматлар"нинг аниқ турлари, уларнинг сони, сифати ва нархи, шунингдек уларни кўрсатиш муддатлари мазкур шартноманинг **иловасида** келтирилган.

Шартноманинг умумий суммаси: **30 287 800 (Ўттиз миллион икки юз саксон етти минг саккиз юз) сўми** ташкил этади.

**II. ТОМОНЛАРНИНГ
ҲУҚУҚ ВА МАЖБУРИЯТЛАРИ**

2.1. "Буюртмачи"нинг ҳуқуқлари:

2.1.1. "Бажарувчи"дан шартномани бажариш учун зарур бўлган амалдаги давлат стандартлари ва бошқа норматив ҳужжатлар билан таъминланиш талаб қилиш;

2.1.2. "Бажарувчи"дан "Хизматлар" "Буюртмачи"нинг ҳисобига транспортда ташилганда транспорт харажатларини қоплашни талаб қилиш;

2.1.3. "Бажарувчи"дан мазкур шартномага мувофиқ бериладиган кўрсатилишини буюртманомага мувофиқ тегишли сифатга эга бўлган "Хизматлар" кўрсатилишини талаб қилиш;

2.1.4. зарур сифатга эга бўлмаган "Хизматлар" кўрсатилган тақдирда ўз таллашига қура:

- зарур сифатга эга бўлмаган "Хизматлар" шунга ўхшаш "Хизматлар" билан алмаштирилишини;

- "Хизматлар"нинг камчиликлари бепул бартараф этилишини ёки камчиликлар "Буюртмачи" ёхуд учинчи шахслар томонидан тўғрилишни харажатларини қоплашни;

- баҳосининг мутаносиб тарзда камайтирилишини талаб қилиш;

2.1.5. Шартнома шартлари бажарилмаганлиги ёки зарур даражада бажарилмаганлиги натижасида етказилган зарар қоплашни "Бажарувчи"дан талаб қилиш.

2.2. "Буюртмачи"нинг мажбуриятлари:

2.2.1. «Хизматлар»ни 2022 йил бюджетдан ажратилган маблағлари доирасида "Бажарувчи" билан шартнома тузиш;

2.2.2. Ўз буюртманомаси буйича кўрсатилган "Хизматлар"ни мазкур шартномага мувофиқ қабул қилиш;

2.2.3. «Хизматлар»га мазкур шартноманинг 3.1-бандида кўрсатилган нарх буйича, қабул қилиш-топшириш далолатномаси имзоланган пайтдан бошлаб, вазначилик булими рўйхатидан ўтказгандан сўнг 10 кун мобайнида ҳақ тулаш.

2.3. «Бажарувчи» қуйидаги ҳуқуқларга эга:

2.3.1. Кўрсатилган "Хизматлар" учун олдиндан ҳақ тулалишини ва амалдаги қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда ва ҳажмда узил-кесил ҳисоб қилинишини "Буюртмачи"дан талаб қилиш;

2.3.2. Берилган буюртманомага мувофиқ кўрсатилган "Хизматлар"ни қабул қилиш асоссиз рад этилиши натижасида етказилган зарар қоплалишини "Буюртмачи"дан талаб қилиш.

2.4. «Бажарувчи» қуйидагиларга мажбур:

2.4.1. «Буюртмачи» билан тузган шартномаси вазначилик бошқармасидан рўйхатдан ўтказилгандан сўнг "Хизматлар"ни кўрсатиш;

2.4.2. "Буюртмачи"га "Хизматлар"ни мазкур шартномага мувофиқ ёки "Буюртмачи" томонидан мазкур шартноманинг 4.8-бандида назарда тутилган тартибда бериладиган ўзини буюртманомасига мувофиқ муддатлар, сифат ва миқдорда кўрсатиш;

**III. ШАРТНОМАНИНГ
БАҲОСИ ВА ҲИСОБ-КИТОБ ТАРТИБИ**

3.1. Мазкур шартноманинг баҳоси **30 287 800 (Ўттиз миллион икки юз саксон етти минг саккиз юз) сўми** ташкил этади. Кўрсатиладиган «Хизматлар»нинг баҳоси мазкур шартномага иловада кўрсатилган.

3.2. Шартноманинг умумий **30 287 800 (Ўттиз миллион икки юз саксон етти минг саккиз юз) сўм** деб белгиланди. Бажариладиган ишлар (хизматлар) учун олдиндан тулов миқдори 30 % ни ташкил қилади. Қолган 70 % тулов ишлар бажарилгандан кейин ҳисоб фактурага асосан қучириб берилади.

3.3. Кўрсатилган "Хизматлар" учун пул қучириш йўли билан нақд пуленг тартибда ҳисоб-китоб қилинади.

IV. ШАРТНОМАНИНГ БАЖАРИЛИШИ

4.1. Шартнома мазкур шартнома ва қонун ҳужжатлари шартлари ва талабларига мувофиқ зарур гарзда бажарилиши керак. Агар томонлар ўз зиммаларига қабул қилинган барча мажбуриятлар бажарилишини таъминласа, шартнома бажарилган деб ҳисобланади.

4.2. Шартнома бажарилишини бир томонлама рад этишга ёки шартнома шартларини бир томонлама узгартиришга йўл қўйилмайди, қонун ҳужжатларида белгиланган ҳоллар бундан мустасно.

4.3. "Хизматлар" қабул қилиш-топшириш далолатномалари тузилган сана шартномалар бўйича мажбуриятлар бажарилган сана ҳисобланади. "Буюртма"чининг Ҳисоб-китоб ҳужжатида газначилик бўлинмаларининг штампида кўрсатилган сана "Хизматлар"га ҳақ тўлаш бўйича "Буюртмачи" мажбуриятлари бажарилган сана ҳисобланади.

4.4. "Буюртмачи" муддатлар бузилган ҳолда кўрсатилган "Хизматлар"ни қабул қилишни рад этишга ҳақлидир.

4.5. Назарда тутилган миқдордан ортиқча бир номда "Хизматлар" кўрсатилиши ушбу ассортиментга кирувчи бошқа номдаги кўрсатилмаган "Хизматлар" урнини тўлдириш сифатида қарамайди ва кўрсатилмаган "Хизматлар"нинг ўрни тўлдирилиши керак, бундай "Хизматлар" "Буюртмачи"нинг олдиндан берилган ёзма розилиги бўйича кўрсатилган ҳоллар бундан мустасно.

4.6. Кўрсатилган "Хизматлар" бевосита "Буюртмачи"нинг масъул ходими томонидан далолатнома бўйича қабул қилинади. Далолатномада кўрсатилган "Хизматлар" миқдори, уларнинг сифати кўрсатилади.

4.7. Шартномада назарда тутилган "Хизматлар" кўрсатилиши мазкур шартномага мувофиқ ёки "Буюртмачи"нинг буюртманомаси кўрсатилган муддатлар ва ҳажмда мазкур шартномада кўрсатилган давр мобайнида амалга оширилади. Ушбу мақсадларда "Бажарувчи" Буюртмачиларнинг буюртманомаларини рўйхатдан утказиш дафтарини юритади.

4.8. "Буюртмачи" илгари берилган буюртманомани бекор қилишга ёхуд "Хизматлар"нинг тегишли қисмларини кўрсатиш санасини ўзгартиришга ҳақлидир, бу ҳақда "Бажарувчи"ни буюртманомада кўрсатилган сана бошланишидан камидан 1 кун олдин хабардор қилади.

V. ТОМОНЛАРНИНГ ЖАВОБГАРЛИГИ

5.1. Кўрсатилаётган "Хизматлар" сифати, миқдори "Бажарувчи" томонидан нотўғри аниқланиши, уларнинг қиймати нотўғри белгиланиши ва ундирилиши ҳоллари аниқланган тақдирда "Бажарувчи" кўрсатилаётган "Хизматлар"нинг сифатини, шунингдек уларнинг миқдорини ҳисобга олган ҳолда қайта ҳисоб-китоб қилади, ҳисоблаб чиқилган ушбу суммадан ташқари буюртмачига нотўғри ҳисоб-китоб қилинган сумманинг 20 фоизи миқдорида жарима тўлайди.

5.2. Агар кўрсатилган "Хизматлар"нинг сифати, ассортименти, навлари стандарт, техник шартлар талабларига, намуналарга (эталонларга) ёки шартномада белгиланган бошқа шартларга жавоб бермаган тақдирда, айбдор томон кўрсатилган, сифати зарур даражада бўлмаган "Хизматлар" қийматининг 20 фоизи миқдорида жарима тўлайди.

5.3. "Хизматлар" кўрсатиш бўйича шартномада назарда тутилган мажбуриятлар бажарилиши рад этилганлиги учун "Бажарувчи" "Буюртмачи"га белгиланган устамалардан ташқари кўрсатилиши керак бўлган "Хизматлар"нинг 25 фоизи миқдорида жарима тўлайди. Жаримадан ташқари, "Бажарувчи" "Буюртмачи"га "Хизматлар" кўрсатилмаслиги натижасида етказилган зарарни тўлайди.

5.4. Хизматлар кўрсатиш кечиктирилган ёки тўлиқ кўрсатилмаган тақдирда "Бажарувчи" "Буюртмачи"га кечиктирилган ҳар бир кун учун мажбурият бажарилмаган қисмининг 0.5 фоизи миқдорида пеня тўлайди, бироқ бунда пенянинг умумий суммаси кўрсатилмаган "Хизматлар" қийматининг 50 фоизидан ортиқ бўлмаслиги керак. Пеня тўланиши шартнома мажбуриятларини бузган томонни шартномани зарур тарзда бажаришдан ва "Хизматлар" кўрсатиш муддати кечиктирилиши ёки тўлиқ кўрсатилмаслиги туфайли етказилган зарарлар қопланишидан озод этмайди.

5.5. Кўрсатилган "Хизматлар" учун ўз вақтида ҳақ тўланмаганда "Буюртмачи" "Бажарувчи"га муддати кечиктирилган ҳар бир кун учун кечиктирилган тўлов суммасининг 0.4 фоизи миқдорида махсус ҳисобрақамидан пеня тўлайди, бироқ бу кечиктирилган тўлов суммасининг 50 фоизидан ортиқ бўлмаслиги керак.

5.6. "Буюртмачи" томонидан тегишли контрактация шартномаси бажарилмаганлиги ёки зарур даражада бажарилмаганлиги учун "Буюртмачи"ни жавобгарликка тортишда шунингдек унинг ҳатти-ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) "Буюртмачи" томонидан контрактация шартномаси бўйича шартнома мажбуриятлари бажарилмаслигига (зарур тарзда бажарилмаслигига) олиб келган "Бажарувчи"нинг жавобгарлиги ҳам қўриб чиқилади. "Бажарувчи"нинг айби билан контрактация шартномасининг "Буюртмачи" томонидан бажарилмаслиги (зарур тарзда бажарилмаслиги) натижасида етказилган зарар белгиланган тартибда "Бажарувчи" томонидан қопланади.

5.7. Мазкур шартномада назарда тутилмаган томонларнинг жавобгарлиги чора-тадбирлари фуқаролик қонунчилиги нормаларига мувофиқ қўлланилади.

5.8. Назорат органлари томонидан утказилган текшириш давомида бажарилган ишлар ва товар маҳсулотлар нархи юқори деб топилган тақдирда урғадаги фарқ товар етказиб берувчи томонидан қопланади.

VI. НИЗОЛАРНИ ҲАЛ ЭТИШ ТАРТИБИ

6.1. Келишмовчиликлар ва низоли масалалар келиб чиққан тақдирда, томонлар, қоидага қура, мустақил равишда уларни судга ҳал этиш чораларини қурадилар.

6.2. Томонлар келишмовчиликлар ва шартларни хал этиш учун бевосита судга мурожаат қилишга ҳақлидир.

VII. ШАРТНОМАНИНГ АМАЛ ҚИЛИШИ

7.1. Томонлар уртасидаги муносабатлар улар томонидан мазкур шартноманинг барча шартлари бажарилган ва ҳисоб-китоб тулик тугалланган тақдирда тухтатилган.

7.2 Шартномани тарафларнинг узаро келишувига асосан ёки Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексига ҳамда амалдаги қонун ҳужжатлари нормаларига биноан келтирилган зарарни тулаган ҳолда муддатидан олтари бекор қилиши мумкин.

7.3 Мазкур № 30-сонли шартнома «06» апрелда 2 нусxada тузилган бўлиб, 2022 йил «06» апрелдан 2022 йил «31» декабргача амал қилади. Шартнома тарафлар томонидан имзоланиб, УЗАСБО ДМ орқали электрон шаклда жўнатилиб Тойлоқ туман Ҳазначилик бўлигидан рўйхатга олинишидан сўнг қонуний кучга кирди.

VIII. ЯҚУНИИ ҚОНДАЛАР

8.1. Мазкур шартнома томонларнинг келишувига кура ёки бошқа томон шартномани шартларини жиддий равишда бузган тақдирда, томонлардан биринини талаби бўйича суд тартибида бекор қилиниши мумкин.

8.2. Мазкур шартномага ҳар қандай ўзгаришни ва қўшимчалар улар ёзма шаклда содир этилиши ва томонларнинг бунга зарур даражада вакил қилинган вакиллари томонидан имзоланиши шарт билан ҳақиқий ҳисобланади.

8.3. Мазкур шартнома томонларнинг ҳар бири учун бир нусхадан икки нусхадга тузилади. Шартноманинг барча нусхалари тенг юридик кучга эгадир.

8.4. Мазкур шартнома, унга ўзгаришлар (қўшимчалар рўйхатдан утказилгандан кейин бажарилиши керак.)

IX. ТОМОНЛАРНИНГ ЮРИДИК МАНЗИЛЛАРИ ВА БАНК РЕКВИЗИТЛАРИ

«Бажарувчи»

“DIAMAND BUILDER” МЧЖ

(ҳизмат курсатувчинини номи)

«Буюртмачи»

Тойлоқ туман ҳокимлиги

Манзил: Тойлоқ шаҳарчаси А Темур- 22

Тел./Факс: 66-231-99-23

ш/хв: 100022860182387011204018089

Манзил: Самарканд шаҳри Беруний кучаси
45-а уй

Тел./факс -

х/в 20208000305054308001

Банк номи “ТрансБанк” ХА Самарканд
филиали

МФО 01097

СТИР 30632

Раҳбар



С.Асанов

Банк Марказий банк ХККМ Тошкент ш.

МФО 00014 ОКОНХ 97600

СТИР 200961334

(Тойлоқ тумани бўйича Ҳазначилик бўлигидан)

Ҳазна х/в. 23402000300100001010

Марказий банк ХККМ Тошкент ш.

МФО 00014; СТИР: 20102919

Б.Бабоназаров



С.Азамов

"DIAMAND BUILDER" МЧЖ ва Тойлоқ туман ҳокимлиги ургасида тузилган
2022 йил 06 апрелдаги № 30-сонли шартномага илова
(02.04.2022 йил Лот № 22110012060193)

| № | Номи | Ўлчов бирлиги | Мифдори | Нархи | Суммаси |
|----|---|---------------|---------|---------|----------|
| 1 | Амортизатор олди Captiva | дона | 2 | 750000 | 1500000 |
| 2 | Амортизатор орқа Captiva | дона | 2 | 2900000 | 5800000 |
| 3 | Шарпер Captiva | дона | 2 | 105000 | 210000 |
| 4 | Шаровой Captiva | дона | 2 | 90000 | 180000 |
| 5 | Чашка почимник Captiva | дона | 4 | 87500 | 350000 |
| 6 | Салник блок Captiva | дона | 4 | 187500 | 750000 |
| 7 | Задние фтулка Captiva | комп | 4 | 142500 | 570000 |
| 8 | Подушка матор Captiva | дона | 1 | 600000 | 600000 |
| 9 | Рулавой калонка Captiva | комп | 1 | 3300000 | 3300000 |
| 10 | Инжектор ремонт Captiva | комп | 1 | 150000 | 150000 |
| 11 | Замена масло Captiva | литр | 5 | 110000 | 550000 |
| 12 | Чашка Captiva | дона | 2 | 230000 | 460000 |
| 13 | Наконечник Captiva | дона | 2 | 110000 | 220000 |
| 14 | Тиага стабилизатор (олди, орқа) Captiva | дона | 4 | 70000 | 280000 |
| 15 | Автошина развал, балансировка Captiva | комп | 1 | 150000 | 150000 |
| 16 | Замена масло каробка Captiva | литр | 5 | 96000 | 480000 |
| 17 | розин столб Captiva | дона | 4 | 32000 | 128000 |
| 18 | Подшипник Captiva | дона | 4 | 745750 | 2983000 |
| 19 | Рычаги подвески олди Captiva | дона | 1 | 1860000 | 1860000 |
| 20 | Шумоизоляция Captiva (Энг сунги турдаги замоновий Салон ички қисми) | комп | 1 | 5020000 | 5020000 |
| 21 | Котализатор Captiva | дона | 1 | 1900000 | 1900000 |
| 22 | Бензин насос Captiva | дона | 1 | 125000 | 125000 |
| 23 | Хизмат ҳақи (9 %) | услуга | 1 | 1101800 | 2721800 |
| | | | | | 30287800 |

"DIAMAND BUILDER" МЧЖ раҳбари




В.Хасанов

Тойлоқ туман ҳокими



Б.Бабошаров



Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida
GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektini yagona davlat reyestriga

"DIAMAND BUILDER" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"DIAMAND BUILDER" MChJ

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

11.04.2019

710659

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR):

306325753

Tashkiliy-huquqiy
shakli:

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi:


Samarqand viloyati, Samarqand shahri, Beruniy ko'chasi 45 a uy,

Guvohnoma:

**Samarqand viloyati, Samarqand shahri, DAVLAT
XIZMATLARI MARKAZI**

tomonidan
berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):



Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 60193 на приобретение Tuman hokimligining xizmat avtomashinalarini ta'mirlash uchun

Способ проведения электронный

Дата 02.04.2022

Время рассмотрения 01.04.2022 19:02

Конкурсная комиссия ХОКИМИЯТ, (Далее – Комиссия) в составе:

| | | | |
|------------------------------|--|---|-------------------|
| Председатель комиссии | XUJAMURODOV JAMSHID JUMABOYEVICH | Tuman hokimining iqtisodiyot va tadbirkorlik masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari | Xarid komissiyasi |
| Секретарь комиссии | TUXTAYEV XURSHIDJON IBRAGIMOVICH | Bosh mutaxassis | xarid komissiyasi |
| Член комиссии | XAYDAROV SHERZOD RAVSHANOVICH | Bosh mutaxassis | Xarid komissiyasi |
| Член комиссии | MUSOYEV AKRAM RASHIDOVICH | Bosh mutaxassis | Xarid komissiyasi |
| Член комиссии | NAJMIDDINOV FIRUZ DJAMOLIDDINOVICH | Tuman hokimining sanoatni rivojlantirish, kapital qurilish, kommunikasiyalar va kommunal xo'jalik masalalari bo'yicha o'rinbosari | Xarid komissiyasi |
| Член комиссии | TURSUNOV AKBAR XABIBULLAYEVICH | Devonxona mudiri | Xarid komissiyasi |

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 02.04.2022 года № лота 60193.

Метод оценки предложений – Метод наименьшей цены

Мин. балл: 86

Предмет закупки:

| Наименование товара (работы, услуги) | Сервис и обслуживание транспортных средств |
|--------------------------------------|---|
| Подробное описание | Tuman hokimligining xizmat avtomashinalarini ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rstish uchun kod 4234100 |
| Количество товара | 1.00 |
| Единица измерения | |
| Цена товара (услуги) за единицу | 35 887 800.00 |
| Стартовая сумма | 35 887 800.00 |
| Валюта | UZS |

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Банк карздорлиги мавжуд маслиги тугрисида маълумотнома.

Тип: Текстовое значение

Описание: Банк карздорлиги мавжуд маслиги тугрисида маълумотнома.

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---------------------------------|-----------|--------------------|----------------|------------|------------|---------|
| DIAMAND BUILDER MCHJ | 25 | мавжуд | 20 | Экспертная | | |
| « КАТТАБЕК BUILDER » МЧЖ | 25 | мавжуд | 25 | Экспертная | | |

Критерий №2 Сифатли иш бажарилиши учун кафолат. берилсин.

Тип: Текстовое значение

Описание: Сифатли иш бажарилиши учун кафолат. берилсин.

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---------------------------------|-----------|--------------------|----------------|------------|------------|---------|
| DIAMAND BUILDER MCHJ | 50 | кафолат берамиз | 45 | Экспертная | | |
| « КАТТАБЕК BUILDER » МЧЖ | 50 | кафолат берамиз | 40 | Экспертная | | |

Критерий №3 Давлат солик инспекциясидан карздорлиги мавжуд эмаслиги тугрисида маълумотнома.

Тип: Текстовое значение

Описание: Давлат солик инспекциясидан карздорлиги мавжуд эмаслиги тугрисида маълумотнома.

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---------------------------------|-----------|--------------------|----------------|------------|------------|---------|
| DIAMAND BUILDER MCHJ | 25 | Мафжуд | 21 | Экспертная | | |
| « КАТТАБЕК BUILDER » МЧЖ | 25 | Мавжуд | 21 | Экспертная | | |

Оценка участников финансовой части составила:

| Наименование участника | Стартовая сумма | Предлагаемая сумма | Дата предложения | Оценка стоимости (балл) |
|---------------------------------|-----------------|--------------------|------------------------|-------------------------|
| DIAMAND BUILDER MCHJ | 35 887 800.00 | 30 287 800.00 | 01.04.2022 10:16:12 | 100.00 |
| « КАТТАБЕК BUILDER » МЧЖ | 35 887 800.00 | 31 887 800.00 | 01.04.2022 10:32:15 | 94.98 |

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

| Наименование участника | Общий балл по технической части | Общий балл по финансовой части | Итоговый балл |
|---------------------------------|---------------------------------|--------------------------------|---------------|
| DIAMAND BUILDER MCHJ | Прошел | 100 | 100 |
| « КАТТАБЕК BUILDER » МЧЖ | Прошел | 94.98 | 94.98 |

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 60193 от 02.04.2022 года на приобретение Tuman hokimligining xizmat avtomashinalarini ta'mirlash uchun определила победителем:

DIAMAND BUILDER MCHJ
306325753

и резервный исполнитель: « KATTABEK BUILDER » МЧЖ (307275444)

Проголосовали

| Комиссия | Ф.И.О. | Голосование | Комментарии |
|------------------------------|------------------------------------|-------------|-------------|
| Председатель комиссии | XUJAMURODOV JAMSHID JUMABOYEVICH | Согласен | |
| Член комиссии | NAJMIDDINOV FIRUZ DJAMOLIDDINOVICH | Согласен | |
| Член комиссии | XAYDAROV SHERZOD RAVSHANOVICH | Согласен | |
| Член комиссии | MUSOYEV AKRAM RASHIDOVICH | Согласен | |
| Член комиссии | TURSUNOV AKBAR XABIBULLAYEVICH | Согласен | |

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

“TASDIQLAYMAN”

Toyloq tuman hokimining

birinchi o‘rinbosari

I. Xo‘jamurodov



Toyloq tuman hokimligining Captiva AAF № 0750290 30.130 DAV davlat raqamli xizmat avtomobilini ta'mirlash va texnik ko'rsatish yuzasidan

TANLASH HUJJATLARI

Toyloq – 2022 y.

1. TANLASH ISHTIROKCHISI UCHUN YO'RIQNOMA

| | | | |
|----------|---------------------------------|-----|--|
| 1 | Umumiy qoidalar. | | |
| | | 1.1 | Tanlash predmeti: Toyloq tuman hokimligining Captiva AAF № 0750290 30.130 DAV davlat raqamli xizmat avtomobilini ta'mirlash xizmat ko'rsatish. Tanlash predmeti bitta bo'linmas lot hisoblanadi |
| | | 1.2 | Texnik topshiriq bo'yicha Tanlashning oxirgi qiymati bajariladigan ishlar uchun QQS bilan 35 887 800 (o'ttiz besh milion sakkiz yuz sakson yetti ming sakkiz yuz so'm) so'mdan oshmasligi kerak. Tanlash taklifida ko'rsatilgan narxlar oxirgi qiymatdan yuqori bo'lmasligi kerak. Tanlash taklifida ko'rsatilgan narxlar maksimal qiymatdan yuqori bo'lmasligi kerak. |
| | | 1.3 | Xizmat ko'rsatish bo'yicha texnik talab tanlash hujjatining texnik qismida keltirilgan. |
| | | 1.4 | Tanlash komissiyasining majlisi - sirdan elektron shaklda o'tkaziladi. |
| 2 | Tanlash tashkilotchilari | | |
| | | 2.1 | Toyloq tuman hokimligi tanlash buyurtmachisi (keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi") hisoblanadi. Manzil: Samarqand viloyati, Toyloq tumani, A.Temur ko'chasi 22-uy |
| | | 2.2 | G'olib bilan shartnoma imzolovchi Toyloq tuman hokimligi |
| | | 2.3 | Tanlash, "Buyurtmachi" tomonidan tashkil qilingan, tarkibi kamida besh kishidan iborat, tanlash komissiyasi tomonidan o'tkaziladi. |
| | | 2.5 | Tanlashda. mulkchilik shaklidan qat'iy nazar istagan yuridik shaxslar. shu jumladan. kichik biznes sub'yektlari ishtirok etishlari mumkin. (4.2 bandeda keltirilgan shaxslar bundan mustasno). |

| | | | |
|---|---|-----|--|
| 3 | Ishtirokchilarga qo'yiladigan talablar | 3.1 | Tanlashda ishtirok etish uchun ishtirokchilar garov sifatida. tanlash predmetining maksimal narxidan 3 (uch) foiz miqdorida etender.uzex.uz maxsus axborot portalining maxsus hisob-raqamiga o'tkazib beradi (<i>garov summasi shartnoma imzolanganidan so'ng ishtirokchiga qaytariladi</i>) |
| | | 3.2 | Kelishilgan muddat ichida tanlash taklifining qaytarib bo'lmaydiganligi va o'zgarmasligining kafolati sifatida quyidagilarni garovga qo'yidali: - kafolat muddati takliflarni qabul qilishning oxirgi sanasidan boshlab 90 (to'qson) kun bo'lishi kerak. |
| | | 3.3 | Tanlash xaridlari boshlanishidan oldin tanlash komissiyasi ishtirokchilarni quyidagi tartibda tanlab oladi: Ball usuli - tanlov taklifining texnik va kvalifikativiy va narx qismlarini baholashni hisobga olgan holda eng yuqori ball to'plagan ishtirokchini g'olib sifatida aniqlaydi. Eng past narx usuli - tanlov takliflarining texnik qismini baholash va natijalariga ko'ra elektron tanlovda ishtirok etishni davom ettirishga ruxsat berilgan ishtirokchilar orasidan eng past narxni taklif etgan, ishtirokchini g'olib sifatida aniqlaydi. Tanlashda ishtirok yetish uchun faqat malakaviy tanlashdan o'tgan ishtirokchilarga ruxsat beriladi. Malakaviy tanlash uchun ishtirokchilar quyidagi mezonlarga javob berishi kerak: - shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan texnik, moliyaviy. moddiy. kadrlar va boshqa resurslarning mavjudligi; - shartnoma tuzish huquqi; - ularga nisbatan kiritilgan bankrotlik proseduralarining yo'qligi; - insofsiz ijrochilarning yagona reyestrda ular haqida yozuvning yo'qligi; |
| 4 | Tanlashni utkazish sharti | 4.1 | |
| | | 4.2 | Quyidagi ishtirokchilarning tanlashda qatnashishiga yo'l qo'yilmaydi: Qayta tashkil qilinish, tugallanish yoki bankrotlik boskichini boshidn kechirayotgan; |
| | | | “Buyurtmachi” bilan sudda yoki h;akamlik sudida tortishayotgan; |
| | | | Insofsiz ijrochilarning yagona ro'yxatiga kiritilgan, |
| | | | solliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha qarzdorligi bor; |

| | | | |
|---|---|-----|--|
| | | 4.3 | Buyurtmachi quyidagi hollarda ishtirokchini tanlashda ishtirok etishdan chetlashtiradi: Ishtirokchi to'g'ridan-to'g'ri yoki vositali tarzda "Buyurtmachi" ning yoki boshqa davlat organining hozirgi mansabdor shaxsiga yoki sobiq xodimiga davlat xaridlari jarayonida biron-bir xarakatni amalga oshirish, qaror qabul qilish yoki biron-bir tanlash taomilini qo'llashga ta'sir ko'rsatish maqsadida har qanday shakldagi mukofot. ishga olishni yoki har qanday qimmatbaxo buyum yoki xizmat ko'rsatishni taklif qilgan. bergan yoki busha rozi bo'lgan taqdirda; |
| | | 4.4 | Ishtirokchi adolatsiz tanlash ustunligiga ega bo'lsa yoki qonunga zid bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lsa. |
| 5 | Tanlash tili. | 5.1 | Tanlash taklifi. ishtirokchi va "Buyurtmachi" tonomidan amalga oshiriladigan u bilan bog'liq bo'lgan barcha yozishmalar, hujjatlar o'zbek va rus tilida bo'lishi kerak. |
| 6 | Tanlash taklifi va uni rasmiylashtirish tartibi . | 6.1 | Ishtirokchi etender.uzex.uz ochiq elektron axborot portili orqali e'lan qilingan lot bo'yicha tanlash takliflarini taqdim qilishlari kerak. |
| | | 6.2 | Portalda e'lon qilingan tanlash ishtirokchilari o'z takliflarini etender.uzex.uz ochiq axborot portalida berilgan e'londa belgilangan tartibda tanlash o'tkazilishi haqidagi e'londa ko'rsatilgan manzil bo'yicha taqdim qiladi. |
| | | 6.3 | Tanlash ishtirokchisi: taqdim qilinayotgan ma'lumotlar va hujjatlarning haqiqiyliigi va ishonchliligi uchun ma'sul hisoblanadi; |
| | | | taqdim qilingan taklifni bunday takliflarni berish muddati tugaguncha qaytarib olish yoki unga o'zgartirish kiritishga haqli. |
| | | 6.4 | Tanlash taklifi tanlash shartlariga mos bo'lgan va quyidagi ma'lumotlarni qamrab oluvchi narxga oid qismdan tashkil topadi: xizmatlar nomlanishi. xizmat ko'rsatish qiymati, yakuniy summa, to'lov shartlari, taklifning amal qilishi muddati va h-z. |
| | | 6.5 | Tanlash taklifi ikki qismdan iborat: - texnik qism. Buyurtmachining texnik topshirigiga mos kelishi va taklif etilayotgan xizmatlarning batafsil tavsifidan iborat; - narx qismi. Tanlash shartlariga muvofiq bo'lishi va quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak: xizmatlarning nomi, xizmatlarning narxi, umumiy miqdori va to'lov shartlari, soliqlar, taklifning amal qilish muddati va boshqalar |

| | | | |
|---|--|-----|--|
| | | 6.6 | Tanlash takliflari e-tender.uzex.uz sayti orqali kiritiladi |
| 7 | Taqdim qilingan tanlash takliflari muddatini uzaytirish | 7.1 | Zarur hollarda, “Buyurtmachi” tanlash takliflarini taqdim qilish muddatini uzaytirishi, shuningdek tanlash komissiyasi qaroriga asosan, tanlash ishtirokchilariga takliflarini amal qilish muddatini uzaytirish to’g’risidagi taklif bilan takliflarni qabul qilishing oxirgi muddatidan 3 kun oldin murojaat qilishi mumkin. |
| | | 7.2 | Tanlash takliflarini taqdim qilish muddatini uzaytirish to’g’risidagi e’lon maxsus axborot portalda joylashtiriladi. |
| 8 | Tanlash hujjatlariga o’zgartishlar kiritish | 9.1 | Zarur hollarda “Buyurtmachi” tanlash hujjatlariga o’zgartishlar kiritish haqida qaror qabul qilishi mumkin. Tanlash hujjatlariga o’zgartishlar kiritish haqida qaror. takliflarni taqdim qilish muddati tugashidan kamida 3 (uch) kun avval qabul qilinishi mumkin. Tanlash takliflariga o’zgartishlar kiritish jarayonida ko’rsatiladigan <i>ishlar, xizmatlar</i> yoki ularning tavsiflari o’zgartirilishiga yo’l qo’yilmaydi. Takliflarni berish muddati tugagan paytda tanlash hujjatlariga o’zgartirishlar kiritilganda tanlash hujjatlariga o’zgartishlar kiritilgan sanadan boshlab kamida 5-12 kunga uzaytiriladi. Ayni paytda e’londa ko’rsatilgan ma’lumot uzgartirilgan taqdirda. tanlashni o’tkazish hakidagi e’longa ham o’zgartishlar kiritiladi. |
| | | 9.2 | Ishtirokchilarning tanlash takliflarini ko’rib chiqish va baholash muddati. tanlash takliflari berilishi yakunlangan sanadan boshlab 10 (<i>o’n</i>) kundan oshmasligi kerak. |
| | | 9.3 | Tanlash komissiyasi takliflarni baholab, tanlash hujjatlarida ko’rsatilgan mezonlar asosida ko’rib chiqadi. |
| | | 9.4 | Tanlash ishtirokchisi taqdim qilgan hujjatlardagi ma’lumotlarning soxtaligi aniqlansa, tanlash komissiyasi bunday ishtirokchini tanlashda ishtirok etishdan chetlashtirishga haqli. |
| | | 9.5 | Tanlash takliflarini baholash va tanlash g’olibini aniqlash tanlash hujjatlarida bayonqilingan mezonlar asosida amalga oshiriladi. |
| | | 9.6 | Taklif amaldagi qonunchilik va tanlash hujjatlari talablariga javob bersa, tegishli tarzda rasmiylashtirilgan, deb hisoblanadi. |
| | | 9.7 | Tanlash taklifi amaldagi qonunchilik va tanlash hujjatlari talablariga javob bermasa, tanlash komissiyasi taklifni rad etadi. |

| | | | |
|-----------|------------------------|------|--|
| | | 9.8 | Agar tanlash ishtirokchilari tanlash takliflarini turli valyutalarda ko'rsatsa. takliflar summolari ularni baholash paytida tanlash taklifining narxga oid qismi bilan birga O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi bo'yicha yagona valyutada hisob-kitob qilinadi. |
| | | 9.9 | Tanlash hujjatlari va takliflarida ko'rsatilgan mezonlar asosida shartnomani bajarish bo'yicha eng yaxshi shartlarni taklif qilgan tanlash ishtirokchisi tizim yoki ekspertlar tomonidan g'olib deb topiladi. |
| | | 9.10 | Arifmetik yoki boshqa xatolar mavjud bo'lgan taqdirda tanlash komissiyasi, bu haqda tanlash ishtirokchisini xabardor qilgani holda tanlash taklifini rad etishga yoki ularni kelgusida ko'rib chiqish bo'yicha boshqa shartlarni belgilashga hakli. |
| | | 8.11 | Tanlashning xorijiy va mahalliy ishtirokchilari narxlarini adolatli taqqoslash maqsadida, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ko'zda tutilgan holatlarda, baholash paytida tegishli xarajatlar (soliqlar, bojxona to'lovlari va boshqa majburiyatlar) hisobga olinadi |
| | | 8.12 | Takliflarni ko'rib chiqish va baholashni qayd qilish bayonnomasida tizim tomonidan qayd qilinadi. |
| | | 8.13 | Takliflarni ko'rib chiqish va baholashni qayd qilish bayonnomasi e'lon qilinganidan so'ng tanlashning har qanday ishtirokchisi "Buyurtmachi"ga tanlash natijalarini tushuntirish bo'yicha so'rov yuborishga haqli. Bunday so'rov kelib tushgan paytdan boshlab 5 (besh) ish kuni davomida tanlash ishtirokchisiga tegishli tushuntirishlar berishga majbur. |
| 10 | Boshqa shartlar | 10.1 | Agar tanlashda ishlab chiqaruvchining ilgari O'zbekiston Respublikasiga yetkazib berilmagan mahsulotlarni taklif etilsa. tanlash komissiyasi ushbu mahsulotga uchinchi shaxslarning mahsulotga tegishli tavsiyani taqdim yetishini talab qilish huquqiga ega. |
| | | 10.2 | Quyidagi hollarda tanlash komissiyasi tanlashni bo'lib o'tmagan deb topadi: <ul style="list-style-type: none"> • <i>tanlashda bitta ishtirokchi ishtirok etgan yoki hech kim ishtirok etmagan taqdirda.</i> • <i>takliflarni ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha tanlash komissiyasi barcha takliflarni tanlash hujjatlari talablariga mos emasligi tufayli rad etgan taqdirda</i> |

| | | | |
|----|---------------------------|-------|--|
| | | 10.3 | G'olib bo'lgan taklif akseptigacha, "Buyurtmachi" istalgan vaqtda tanlashni bekor qilishi mumkin. Tanlash bekor qilingan taqdirda "Buyurtmachi" maxsus axborot portalida bunday qarorning asosli sabablarini chop etadi. |
| 11 | Shartoma tuzilishi | 11.1 | Tanlash natijalarga ko'ra shartnoma, G'olib bilan shartnoma tuzayotgan tanlash "Buyurtmachi"si tomonidan taqdim qilingan tanlash hujjatida ko'rsatilgan shartlar asosida tuziladi. |
| | | 11 2. | Tanlash komissiyasi tomonidan g'olib deb topilgan tanlash ishtirokchisi "Buyurtmachi"dan tegishli yozma xabarnoma oladi. |

“TASDIQLAYMAN”

Toyloq tuman hokimining

birinchi o‘rinbosari

J. Xo‘jamurodov



Toyloq tuman hokimligining Captiva AAF № 0750290 30.130 DAV davlat raqamli xizmat avtomobilini joriy ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatishga doir xizmat ko‘rsatish tashkilotini tanlash bo‘yicha

Texnik topshiriq

Toyloq – 2022 y.

MUNDARIJA:

- 1 BO'LIM. BAJARILADIGAN ISHLAR VA KO'RSATILADIGAN XIZMATLARNING NOMLANISHI HAMDA FOYDALANISH MAQSADI.
- 2 BO'LIM. ISHLAR, XIZMATLARNING RO'YXATI VA ULARNING HAJMI (MIQDORI)
- 3 BO'LIM. BAJARILADIGAN ISHLAR VA KO'RSATILADIGAN XIZMATLARNING SHARTI (TASHISH SHARTLARI)
- 4 BO'LIM. BAJARILADIGAN ISHLAR VA KO'RSATILADIGAN XIZMATLARNING MANZILI (JOYI)
- 5 BO'LIM. BAJARILADIGAN ISHLAR VA KO'RSATILADIGAN XIZMATLARNING NARXI VA TO'LOVLARNI AMALGA OSHIRISH SHARTLARI
- 6 BO'LIM. BAJARILADIGAN ISHLAR VA KO'RSATILADIGAN XIZMATLARNING MURAKKABLIGINI INOBATGA OLGAN HOLDA ISHTIROKCHILARGA QO'YILADIGAN TALABLAR
- 7 BO'LIM. ISHLARNI BAJARISH VA XIZMATLARNI KO'RSATISH MUDDATI (DAVRI)
- 8 BO'LIM. ISHLAR VA XIZMATLARNING NATIJALARINI TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI
- 9 BO'LIM. ISHLAR VA XIZMATLARNING HAJMIGA (MIQDORIGA) KAFOLAT BO'YICHA TALABLAR
- 10 BO'LIM. ISHLARNI BAJARISH VA XIZMATLARNI KO'RSATISHGA QO'YILADIGAN QO'SHIMCHA TALABLAR
- 11 BO'LIM. QABUL QILINGAN QISQARTIRISHLAR RO'YXATI
- 12 BO'LIM. ILOVALAR RO'YXATI

**1 BO'LIM. BAJARILADIGAN ISHLAR VA KO'RSATILADIGAN
XIZMATLARNING NOMLANISHI HAMDA FOYDALANISH MAQSADI**

«Toyloq tuman hokimligi» (keyingi o'rinlarda - buyurtmachi) xizmatda foydalanish ehtiyoji uchun hokimlik balansida bo'lgan Captiva AAF № 0750290 30.130 DAV davlat raqamli yengil avtomashinalar turkumiga kiruvchi xizmat avtomobilini joriy ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish.

**2.BO'LIM. ISHLAR, XIZMATLARNING RO'YXATI
VA ULARNING HAJMI (MIQDORI)**

Xizmat ko'rsatuvchi buyurtmachi balansida bo'lgan Captiva AAF № 0750290 30.130 DAV davlat raqamli yengil avtomashinalar turkumiga kiruvchi xizmat avtomobiliga ilovada ko'rsatilgan ehtiyot qismlarni yangisiga almashtiradi va texnik xizmat ko'rsatadi.

Captiva AAF № 0750290 xizmat avtomobiliga, xizmat ko'rsatuvchi ko'rxona tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar o'z vaqtida, sifatli va o'z ichiga kafolat muddatini olishi shart.

2022 yilda mazkur texnik topshiriqdagi ishlarni (xizmatlarni) bajarishga xizmat ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan ushbu yengil avtomobillarga xizmat ko'rsatish bo'yicha yetarli malakaga ega bo'lishi va vakolatli organlar tomonidan berilgan ruxsatnoma (lisenziya) ega bo'lishi shart.

Buyurtmachi joylashgan manzil va ko'rsatiladigan xizmatlarning murakkabligidan kelib chiqib, mazkur texnik topshiriqda ko'rsatilgan xizmatlarni bajarish uchun (lisenziya) ega bo'lgan bir nechta xizmat ko'rsatuvchi tashkilot jalb qilinishi mumkin.

**3 BO'LIM. BAJARILADIGAN ISHLAR VA KO'RSATILADIGAN
XIZMATLARNING SHARTI (TASHISH SHARTLARI)**

Ish rejimi - 8-00dan 17-00gacha.

Captiva AAF № 0750290 30.130 DAV davlat raqamli yengil avtomashinalar turkumiga kiruvchi xizmat avtomobiliga ilovada ko'rsatilgan ehtiyot qismlarni yangisiga almashtirish va texnik xizmat ko'rsatish uchun xizmatini ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan o'rnatiladigan ehtiyot qismlar va yoqilg'i-moylash materiallari sifatli va ishlar o'z vaqtida bajarilishi talab etiladi.

Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot Captiva AAF № 0750290 30.130 DAV davlat raqamli xizmat avtomobiliga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan ehtiyot qismlar o'rnatish uchun maxsus joy ajratiladi.

**4 BO'LIM. BAJARILADIGAN ISHLAR VA KO'RSATILADIGAN
XIZMATLARNING MANZILI (JOYI)**

Captiva AAF № 0750290 30.130 DAV davlat raqamli xizmat avtomobiliga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan ehtiyot qismlarni yangisiga almashtirish “Xizmat ko'rsatuvchi”ning xavfsizlik texnikasiga, yongin xavfsizligiga rioya qilingan holda maxsus joylarda amalga oshirishi shart.

**5 BO'LIM. BAJARILADIGAN ISHLAR
VA KO'RSATILADIGAN XIZMATLARNING NARXI
VA TO'LOVLARNI AMALGA OSHIRISH SHARTLARI**

Bajarilgan ishlar uchun to'lovlar, 30 % to'lov oldindan va 70 % yakuniy to'lov esa ishlarni bajarilganligini (xizmatlarni ko'rsatilganligini) tasdiqlovchi barcha hujjatlar olinganidan keyin 10 (o'n) bank kuni ichida amalga oshirilishi zarur, lekin bu muddat 15 (o'n besh) kalendar kunidan ortiq bo'lishi mumkin emas.

**6 BO'LIM. BAJARILADIGAN ISHLAR VA KO'RSATILADIGAN XIZMATLARNING
MURAKKABLIGINI INOBATGA OLGAN HOLDA ISHTIROKCHILARGA QO'YILADIGAN
TALABLAR**

Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar kafolatli bo'lishi shart. Barcha almashtiriladigan ehtiyot qismlar 2021-2022 yillarda ishlab chiqarilgan bo'lishi talab etiladi.

**7 BO'LIM. ISHLARNI BAJARISH VA XIZMATLARNI
KO'RSATISH MUDDATI (DAVRI)**

Xizmatni ko'rsatish muddati - 2022 yilning mart-aprel oylari.
Captiva AAF № 0750290 30.130 DAV davlat raqamli xizmat avtomobiliga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan ehtiyot qismlarni yangisiga almashtirish bo'yicha xizmat ko'rsatish ishlari buyurtmachi va xizmat ko'rsatuvchi tashkilot o'rtasida amaldagi qonun hujjatlari va o'rnatilgan tartibda shartnoma imzolanganidan keyin amalga oshiriladi.

**8 BO'LIM. ISHLAR VA XIZMATLARNING NATIJALARINI
TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI**

Captiva AAF № 0750290 30.130 DAV davlat raqamli xizmat avtomobiliga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan ehtiyot qismlarni yangisiga almashtirish va texnik xizmatlarini ko'rsatgan tashkilot ko'rsatilgan xizmatlar to'g'risidagi barcha asoslovchi hujjatlarni hisobot oyidan keyingi oying beshinchi sanasigacha o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqish va qabul qilish uchun buyurtmachiga taqdim qiladi.

Ishlarni bajarganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlar buyurtmachi tomonidan taqdim qilingan yuk xatlari, bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnomasi va boshqa xizmat ko'rsatish hujjatlari hisoblanadi. Bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnoma buyurtmachining tegishli mutaxassislari tomonidan imzolanadi.

Hisobot davri bo'yicha davlat buyurtmachisi va ishlarni (xizmatlarni) ko'rsatuvchi tashkilot rahbariyati tomonidan dalolatnoma rasmiylashtirilib imzolanganidan so'ng ishlar to'liq bajarilgan hisoblanadi va to'lov uchun hisob-faktura yoziladi.

**9 BO'LIM. ISHLAR VA XIZMATLARNING HAJMIGA
(MIQDORIGA) KAFOLAT BO'YICHA TALABLAR**

Captiva AAF № 0750290 30.130 DAV davlat raqamli yengil avtomashinalar xizmat avtomobiliga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan ehtiyot qismlarni yangisiga almashtirish bo'yicha texnik xizmat ko'rsatish xizmatlari tegishli manziligacha to'liq va sifatli bajarilishi zarur.

10 BO'LIM. ISHLARNI BAJARISH VA XIZMATLARNI
KO'RSATISHGA QO'YILADIGAN QO'SHIMCHA TALABLAR

Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotda zaruriy ruxsat beruvchi hujjatlarning mavjud bo'lmaganligi uchun javobgarlik xizmat ko'rsatuvchi tashkilot zimmasiga yuklatiladi.

Texnik xizmat ko'rsatilgan Captiva AAF № 0750290 30.130 DAV davlat raqamli yengil xizmat avtomobiliga xizmat ko'rsatuvchining aybi bilan buyurtmachining ishlab chiqarish jarayonida nosozlik kuzatilganda yoki xizmat ko'rsatuvchi tashkilot o'ziga yuklatilgan vazifalarni yetarlicha bajarmaganda tuzilgan umumiy shartnoma summasining 50% gacha miqdorida xizmat ko'rsatuvchi tashkilotga jarima qo'llaniladi. Shu bilan bir vaqtda xizmat ko'rsatuvchi tashkilot bilan tuzilgan shartnomani buyurtmachi tomonidan bir tomonlama bekor qilish korib chiqiladi.

Ushbu texnik topshiridda ko'rsatilgan ishlarni bajarishi (xizmatlarni ko'rsatishi) mumkin bo'lgan potensial tashkilotlarga mazkur ishlarni bajarish bo'yicha tanlov boshlanguniga qadar buyurtmachining ob'ektlariga tashrif buyurishi, ish hajmi va ishlarni bajarish shart-sharoitlari bilan joyida tanishishi uchun imkoniyat yaratib beriladi.

II BO'LIM. QABUL QILINGAN QISQARTIRISHLAR RO'YXATI

| T/r | Qisqartma | Qisqartmaning to'liq yoyilmasi |
|-----|-----------|--------------------------------|
| | - | |

Toyloq tuman hokimligi bosh mutaxassisi:

 A. Musayev

Toyloq tuman hokimligi xo'jalik mudiri:

 K. Raximov

Texnik topshiriqqa ilova

| № | Номи | Ўлчов бирлиги | Мифдори |
|----|--|---------------|---------|
| 1 | Амортизатор олди Captiva | дона | 2 |
| 2 | Амортизатор орқа Captiva | дона | 2 |
| 3 | Шарнер Captiva | дона | 2 |
| 4 | Шаровой Captiva | дона | 2 |
| 5 | Чашка почимник Captiva | дона | 4 |
| 6 | Салник блок Captiva | дона | 4 |
| 7 | Задние фтулка Captiva | комп | 4 |
| 8 | Подушка матор Captiva | дона | 1 |
| 9 | Рулавой калонка Captiva | комп | 1 |
| 10 | Инжектор ремонт Captiva | комп | 1 |
| 11 | Замена масло Captiva | литр | 5 |
| 12 | Чашка Captiva | дона | 2 |
| 13 | Наконечник Captiva | дона | 2 |
| 14 | Тиага стабилизатор (олди, орқа) Captiva | дона | 4 |
| 15 | Автошина развал, балансировка Captiva | комп | 1 |
| 16 | Замена масло каробка Captiva | литр | 5 |
| 17 | розин столб Captiva | дона | 4 |
| 18 | Подшипник Captiva | дона | 4 |
| 19 | Рычаги подвески олди Captiva | дона | 1 |
| 20 | Шүмоизоляция Captiva (Энг сўнги турдаги замоновий Салон ички қисми тўлиқ) | комп | 1 |
| 21 | Котализатор Captiva | дона | 1 |
| 22 | Бензин насос Captiva | дона | 1 |
| 23 | Хизмат ҳақи (7 %) | услуга | 1 |
| | | | |